
Dolzarb masalalar muhokama qilindi

Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltinchi chaqiriq ellik sakkizinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda hokim o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga daxldor tashkilot va muassasalar rahbarlari taklif ishtirok etishdi. Sessiyani xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashi raisi, shahar hokimi Vosiljon Nazarov ochdi va olib bordi.

Bugungi sessiyasining kun tartibida quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

-Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash va ichki bozorda narxlar barqarorligini saqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi vazifalar haqida hamda "Sahovat va ko'mak" jamg'armasi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida. Ma'ruzachi - shahar hokimining birinchi o'rinbosari Boburjon Mo'minov.

-Farg'ona shahri hududida 2022 yilning 4 oyi davomida yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida. Ma'ruzachi - Yoshlar ishlari agentligi Farg'ona shahar bo'limi boshlig'i Axadjon Akramov.

-Shaharda yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, turarjoylar bilan ta'minlash, ularni oilaviy bolalar uylariga joylashtirish, hayotga tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasidagi ishlar holati to'g'risida. Ma'ruzachi - Farg'ona shahar hokimligi bolalarni himoya qilish sho'ba mudirasi Lolaxon Kadirova.

-2022 yil 1-chorak yakunlari bo'yicha shahar mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalarini ijrosi to'g'risida. Ma'ruzachi - Farg'ona shahar Moliya bo'limi boshlig'i Shuhratjon Inoyatov.

-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022 yil 8 apreldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi qarori ijrosi to'g'risida. Ma'ruzachi - Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi Jahongir Akramov.

Shuningdek, sessiya davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-sonli Farmoniga asosan, shahardagi 11-43-o'rta talim maktablarida bo'shab qolgan(vakant) direktorlik lavozimlariga yangi direktor tayinlash maqsadida viloyat Xalq talimi boshqarmasi tomonidan 11- va 43-o'rta ta'lim maktab direktorligiga tavsiya etilgan nomzodlarning maktab direktorligi faoliyati uchun kelgusidagi 3 yillik dastur yuzasidan taqdimotlari ham eshitildi.

Deputatlarning ovoz berishlari orqali nomzod Mavlonova Zuhraxon Rahmonovna 11- hamda G'aniyev Sohibjon Saminovich esa 43-ta'lim maktab direktorligiga tavsiya etildi.Sessiya kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

2022-05-19 18:07:49